

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKtablARI O'QUVCHILARINI TASVIRIY SA'NAT DARSALARIDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALAR VA KETMA – KETLIK PRINTSIPI ASOSIDA O'QITISH

Mamitaliyev Ahmadjon G'aniyevich

Andijon davlat Pedagogika instituti

“Tasviriy san’at va musiqa ta’limi”

kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqola umumiy o‘rtta ta’lim maktablari o‘quvchilarini tasviriy san’at darsalarida pedagogik tehnologiyalar, ketma-ketlik printsipi, ko‘rgazmali qurollar va didaktik printsiplar asosida o‘qitish boyicha bir qator masalalarni bayon etadi va bo‘lajak tasviriy san’at fani o‘qituvchilari uchun kerakli bo‘lgan metodik tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Tasviriy san’at, tasvir, o‘qituvchi, o‘quvchi, mabkab, natyurmort, ko‘nikma, ko‘rgazma, ta’lim-tarbiya, didaktika.

Tariximiz va madaniyatimizni ifoda etadigan moddiy va madaniy boyliklarimiz muhim tarbiya vositasi bo‘lib hisoblanadi. Ajodolarimiz tomonidan yaratilgan moddiy-ma’naviy boyliklar bitmas-tuganmas xazina, yoshlar ongiga singdiriladigan, ularni barkamol avlod qilib tarbiyalaydigan bebahom omillardir. Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek “Har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi” degan so‘zlar boy merosimizga qanday munosabatda bo‘lish kerakligini ko‘rsatib beradi. Kelgusida farzandlarimiz, ozod va obod vatanimizning yuksak ma’naviyatli, moddiy va ma’naviy qadriyatlarini avaylaydigan, tariximizni ulug‘laydigan, barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlari darkor. Shu bilan bir qatorda kelajak avlodimiz ma’naviyati va tafakkurini yuksaltirishda tasviriy san’at fanining o‘rni beqiyosdir.

Mabkab tasviriy san’ati birinchi sinfdan boshlab o‘qitiladi. Birinchi-uchinchisinfarda o‘quvchilar rasm chizishda o‘quv qurollaridan foydalanish va qo‘l-ko‘zni rasm chizishga o‘rgatish, ya’ni qo‘l bilan ko‘zni rasm chizishni qonun-qoidalari bilan mashqlar vositasida ko‘nikmalar hosil qilish maqsadida va vazifalar yo‘lida faoliyat yuritadi. 4-sinfdan boshlab, rasm chizishni o‘rganish va o‘rgatishni asosiy bosqichi, ya’ni realistik rasm chizish qonun-qoidalari o‘rgatiladi. Shuning uchun 4-sinfdan boshlab “Narsani o‘ziga qarab rasm chizish” darslarining maqsadi vazifasi, uni tashkil

etish va o‘qitish texnologiyasi, didaktikasi va ta’lim metodlari ham mutloq yangicha shakl va mazmunda olib boriladi. Ma’lumki, pedagogik texnologiya, bu - o‘qituvchini darsga kirishi, ya’ni darsni boshlashidan boshlab, uni darsni yakunlashigacha bo‘lgan pedagogik jarayonni o‘z ichiga oladi.

Maktab tasviriy san’atini o‘qitishning pedagogik texnologiyasi - dars jarayonida o‘qitish, o‘rgatish va rivojiantirish qonun-qoidalalarini ishga solib, ta’lim-tarbiya vositalaridan unumli foydalangan holda belgilangan maqsadga erishishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon mazmunida ifodalanadi. Shunga ko‘ra “Narsani o‘ziga qarab rasm chizish” darslarida g‘oyat kuchli, qiziqarli, rang-barang didaktik va ko‘rgazma materiallaridan foydalanilgan holda darsning o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib, darsda shu mazmundagi vazifalarni ko‘rsatib-tushuntirib, mustaqil-ijodiy chizishga kiritish, dars davomida o‘quvchilar bilim-malakalarini nazoratdan o‘tkazish, o‘quvchilami bilim-malakalarini va grafik ishlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish va uning mazmunini, bajarish yo‘llarini o‘rgatish va dars tugaganini e’lon qilish - kabilardan iborat bo‘lgan pedagogik texnologiyaga amal qilinadi. Maktab tasviriy san’ati darslari o‘ziga xos yagona pedagogik texnologiyaga egadir. Lekin tasviriy san’atning dars-mashg‘ulotlarining turlariga ko‘ra dars mashg‘ulotlarining pedagogik texnologiyalari ham bir-biridan qisman farq qiladi. Masalan, narsani o‘ziga qarab rasm chizish darsida o‘quvchilar asosan natura bo‘yicha ishlaydi. “Tematic kompozitsiya ishlash” mashg‘ulotlarida o‘quvchilar hayol, tasavvur, fantaziya bo‘yicha ishlaydilar. Haykaltaroshlik darslarida esa ham natura bo‘yicha, ham tasavvur, fantaziya, tafakkur asosida ishlaydilar. Bulardan ko‘rinib turibdiki, tasviriy san’atning dars-mashg‘ulotlari mazmunini o‘zgarishi bilan, ularni o‘qitish texnologiyalari ham qisman o‘zgarib turadi. Ma’lumki, 4-sinfdan boshlab narsani o‘ziga qarab rasm chizish dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarga rasm chizishni yangicha texnologiyasi hajm asosida narsa-predmetlar tasvirini yaratishning o‘ziga xos qonun-qoidalari o‘rgatiladi. Bu texnologiyada predmetning shakli, tuzilishi, turish holati, rangi, uning asosiy va ikkinchi darajali elementlari, predmet ko‘rinishidagi perspektiva hodisasi, yorug‘-soyalar asosida hajmni ifodalash, predmetni qonun-qoidalari ko‘rinishini tasvirga tushirish qoidalari, qonunlari, vositalari o‘rgatiladi va ulardan foydalanish yo‘llari, metodlari, uslublari, didaktik printsiplari bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalar oladilar. Shuning uchun bu sinfda dars beradgan tasviriy san’at o‘qituvchisi rasm chizish bo‘yicha yuksak bilim-malakaga ega bo‘lishi bilan birga, u ijodiy iste’dodga va darsning pedagogik texnologiyasini, o‘quv uslubiy uslublarini ham juda yaxshi bilishi kerak. Chunki, agar o‘qituvchi rasmni juda oson, tez chizib, o‘zi chizayotgan har bir chiziq, shtrix va tasvirnm qayerdan, qanday holatda boshlab, qayerda, qanday holatda tugaganini aniq ko‘rsatib, o‘quvchilarda ishonchli tasavvur hosil qila olsa, u albatta hamma o‘quvchiga rasm chizishni o‘rgata oladi. Bu to‘la

isbotlangan va asoslangan haqiqatdir. O‘qituvchi dars jarayonida har bir so‘zini ishonch bilan aytib, uni harakat holatida - ko‘rgazmalar va sinf doskasida chizgan tasvirlar asosida ko‘rsata olishi kerak, o‘quvchi buni isbotini berilayotgan ma’lumotlar va amaliyotlar vositachiligidagi anglab olishlari lozim. Bu faoliyat narsani o‘ziga qarab rasm chizish darslarida o‘qituvchining og‘zaki bayoni bilan, uning sinf doskasiga chizib ko‘rsatayotgan rasmtasvirlarining o‘zaro, so‘zma-so‘z bog‘lanishi jarayoni bilan amalga oshiriladi. Bularning barchasi o‘qituvchini darsga tayyorgarligi saviyasiga bog‘liq bo‘lib, bu tayyorgarlikda o‘qituvchini darsni «motivatsiya» jarayoni bilan boshlashidan boshlab, darsda ta’lim-tarbiyaning barcha vositalaridan unumli foydalanish asosida rejalashtirilgan ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarni bajarilishida namoyon bo‘ladi. Demak, o‘qituvchi darsga tayyorgarlik davrida darsni tashkil etish va o‘tkazishning eng samarali pedagogik texnologiyasini, didaktik printsiplarini va ta’lim metodlarini tanlab olishi va uni dars jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini ishlab chiqadi. Bu jarayon ko‘proq o‘rinlarda «Motivatsiya» bilan boshlanadi. Narsani o‘ziga qarab rasm chizish darslarida pedagogik texnologiyani samarali bo‘lishi ko‘proq didaktik materiallami yetarli, saviyali va sifatli bo‘lishi bilan birga, dars materialini, unda bajariladigan vazifalami o‘quvchilarining yoshiga, bilim malakasiga, dunyoqarashi va hayotiy faoliyatlar tajribasiga ham juda bog‘liq bo‘ladi. Bunga o‘quv fanning dasturida alohida e’tibor beriladi. Lekin o‘qituvchi ixtiyorida qoldirilgan rasmini chizish uchun narsa (natura), predmet va ob’ekt tanlashda juda e’tiborli bo‘lishni talab qiladi.

Narsani o‘ziga qarab rasm chizish darslarida məktəb tasviriy san’atini o‘qitishning pedagogik texnologiyasiga asoslangan holda, yana bir qator ta’limiy va tarbiyaviy vositalardan foydalanish zaruriyati namoyon bo‘ladi. Bular eng avvalo darsda rasmi chiziladigan natura, ob’ektlarni to‘g‘ri tanlash, ularning taxlilini imiy asosda tashkil etish, darsda o‘quvchilar tomonidan bajariladigan vazifalarni nazariy va amaliy jihatdan ko‘rsatib, tushuntirib berish, darsni ko‘proq qismini amaliy faoliyatga ajratilishi, amaliyotdan so‘ng darsda bajariladigan ishlarni taxlilini o‘tkazish va o‘quvchilarining bilim-malakalarini baholab borish, uyga beriladigan vazifalarni mazmun-mohiyatini, ularni bajarish yo‘llarini tushuntirib berishda namoyon bo‘ladi.

4-sinfdan boshlab rasmi chiziladigan natura va natyumortlarni o‘quvchiga aniq, ravshan holatda, uchta tomoni ko‘rinadigan, ularni o‘quvchilar tez anglab oladigan holatda, maxsus taglik (podstavka) ustiga, xonani 2-3 joyiga qo‘yish kerak. Buni narsani o‘ziga qarab rasm chizish darslarining pedagogik texnologiyasi va didaktik printsiplari talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi eng avval rasmini chizish uchun qo‘yiladigan natura va natyumortlarni o‘quvchilarini ko‘rish gorizontidan yuqorilab ketmasligini ham ta’minlashi zarur. Yana natyumort elementlari bir-biridan ajralib qolmasligini ham, qo‘silib ketmasligi ham e’tiborga olishi kerak.

Chiziladigan natyumortning har bir predmetini alohida-alohida taxlil qilib, ularni turish holatini va ularga tushayotgan yorug‘-soyalar qayta-qayta ko‘rsatilib, ularni tasvirlash yo‘llari sinf doskasida va ko‘rgazmalar vositasida tushuntirib beriladi. Agar natura yoki natyumort predmetlarini bir yoki ikki tomonigina ko‘rinadigan bo‘Isa, o‘quvchilar bu predmetlarni shakli va tuzilishini yaxshi idrok etolmaydilar. Ularni tasvirini yaxshi chiza olmaydilar. Shuning uchun 4-sinfagi narsani o‘ziga qarab rasm chizish darslaridagi asosiy vazifa - o‘quvchilarga natura yoki natyumortlarni shakli, tuzilishi, rangi, turish holatlari, yorug‘- soyalarini ko‘rish, kuzatish, idrok etish va ular haqida ilmiy-amaliy tasavvurlar hosil qilishga o‘rgatgan holda, ularni rasmini hajmli holatda tasvirlashdan iborat bo‘ladi. Yana 4-sinfagi narsani o‘ziga qarab rasm chizish darslarida o‘quvchilarga realistik rasm chizishning asosiy printsipi - narsalar tasvirini hajm asosida, perspektiva va yorug‘-soyalar nazariyasiga, qonun-qoidalalariga amal qilingan holda, naturalizm metodlari bo‘yicha tasvirlar yaratish, rasm ishlashga o‘rgatish , narsani o‘ziga qarab rasm chizishnigina emas, balki butun tasviriy san’at o‘quv fanining, o‘quv predmetining bosh, asosiy va texnologiya yoki didaktik vazifasi qilib Davlat ta’lim standartida va dasturida belgilab qo‘yilgan. Bu talab o‘quvchilarga beriladigan tasviriy faoliyat bo‘yicha bilim, malakalarni ilmiy, izchil, asosli, sistemali, amaliy faoliyatga bog‘lagan holda va ko‘nikmaga aylangan darajada bo‘lishini ta’minlaydi. Bularni amalga oshirish har qanday rassom yoki pedagog-rassomni ham qo‘lidan kelavermaydi. Chunki, buning uchun o‘qituvchi rasm chizish bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lishi bilan birga, u bolalar bilan ishlay olish, rasm chizishni boshqalarga o‘rgata olish, tasviriy faoliyat darslariga ijodkorlik, tashabbuskorlik va mustaqillik faoliyati ruxini olib kira olish kabi haqiqiy pedagogik mahoratga ham ega bo‘lishlari kerak. U dars materialini, darsda o‘quvchilar bajara oladigan vazifalarni juda «osonlik» bilan «ilmiy asosda» va «qisqagina» qilib o‘quvchilarga yetkazishni buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) ko‘rstib o‘tganidek amalga oshirishi zarur.

Atoqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy (1824-1871) ta’kidlaganidek, - «Rasm o‘qituvchisi rasm chizishni bilishi zarur, lekin uni o‘rgata olishi, uni eng muhim vazifasidir», - degan iborani ko‘p marotaba ta’kidlagan edi.

Shuning uchun maktab tasviriy san’at o‘qituvchisi rasm chizishni ustasi bo‘lishi kerak, shu bilan birga u realistik rasm chizishga o‘rgatish darslarini pedagogik texnologiyasini, darsda o‘qitish didaktikasini va ta’lim berish - rasm chizishga o‘rgatish o‘quv uslubi - uslublarini juda kuchli bilishlari va ular o‘qituvchi faoliyati mazmuniga singib ketgan bo‘lishi kerak. Tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘zining har bir darsi uchun darsning maqsadi va vazifasiga ko‘ra dars texnologiyasini ishlab chiqadi. Bularning hammasi uchun eng avvalo mактабда mutaxassis pedagog-rassom bo‘lishi, u mактабни 1-7 sinflaridagi barcha tasviriy san’at darslarini o‘zi olib borishi zarur. Ikkinchidan mактабда yangi ish boshlagan tasviriy san’at o‘qituvchisi eng avval

maktabda tasviriy san'at kabinetini tashkil etish va uni eng zaruriy didaktik asboblar, materiallar va ko'rgazmali quollar bilan ta'minlashga kirishishi kerak. Maktabda tasviriy san'at kabinetini tashkil etishga muktab ma'muriyati tuman va viloyat xalq ta'limi boshqarmalari bilan hamkorlikda rasm chizish partalari, malbertlar, maxsus sinf doskasi, podstavka, natura uchun fon materiallari va chelak kabi inventarlar bilan ta'minlashga yordam berishi zarur.

Muktab tasviriy san'ati ayniqsa, uning narsani o'ziga qarab rasm ishslash dars-mashg'ulotlarida predmet-narsalaming shakli, tuzilishi, rang-tuslari, yorug'-soyalar, ulaming elementlari, ulardagi perspektiva va uning qonuniga ko'ra shakl va rang o'zgarishlari, ularning yaratilishi, odamlar hayoti va turmushidagi tutgan o'mi kabilar haqida o'quvchilarga aniq-to'g'ri ma'lumotlar berilishi kerak, bularning hammasi o'qitishning ilmiylik printsipi asosida bo'lishini ta'minlaydi. Narsani o'ziga qarab rasm chizish darslarida rasmi chiziladigan narsalar tasvirini yaratishda narsalami ko'rinishi, undagi perspektiva qonunlari, soyalar nazariyasi, ufq-gorizonti, predmetlarning ichki mazmun-mohiyati bo'yicha ma'lumotlar berilishi zarurki, bularning hammasi ilmiy asosda va o'quv fanlarining ma'lumot-manbalariga tayangan holda bo'lishi lozim. Chunki darsda berilayotgan ma'lumotlar shu darsni o'zidagi amaliy ishlarda qo'llab ko'rildi. Shuning uchun tasviriy san'at va uning narsani o'ziga qarab rasm chizish darslarida didaktikaning ilmiylik printsipi dars mashg'ulotida to'la hukmronlik qiladi. Narsani o'ziga qarab rasm chizish darslari 4-sinfdag'i o'quvchilarga beriladigan bilim-malakalar asosan predmetning shakli, tuzilishini chiziq, shtrix va yorug'-soyalar asosida tasvirini yaratish mazmunida bo'lib, bu o'rinda geometrik shakllarni naturaga tanlash yaxshi natija beradi va o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tasviriy san'at ta'limidagi ilmiylik - o'rganilayotgan yoki rasmi chizilayotgan narsa, predmet, voqe'a-hodisa va ob'ektni tashqi ko'rinishi, shakli, tuzilishi, rang-tusi va ularning ichki mazmun-mohiyatini, ulami o'zaro aloqalarini, bir-biriga bog'liqligini ilmiy jihatdan, fan malumotlari asosida ko'rsatib, tushuntirib berishni darsning maqsadi va vazifalarining o'zi qat'iyan talab qiladi. Tasviriy san'at ta'limidagi ilmiylik - rasmi chizilayotgan va o'rganilayotgan narsa, predmet, voqe'a va ob'ektlami o'rganib chiqish va ular rasmini chizish uchun zarur bo'ladigan qonun-qoidalarni ilmiy asoslaridan boshlab o'rgatish va ularni amalda qo'llash mazmunidagi pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladi. Chunki, har qanday ta'limidagi ilmiylik-ta'lim mazmunini to'g'ri, ob'ektiv, haqqoniylar ma'lumotlar bilan ta'minlagan holda, ta'lim mazmunini sistemali, ma'lum bir tartibda, ketma-ketlik qoidalari asosida o'rganadi, o'rgatadi, takomillashtiradi va rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Xasanov R, Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. -T.: Fan, 2004.
2. Egamov A. Kompozitsiya asoslari. -T.: “San’at” jurnali nashriyoti, 2005.
3. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. -T.: 2012.
4. Muratov X.X, Qalamtasvir. -T.: Ijod –print, 2020.
5. Boymetov B, Qalamtasvir. Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2010-yil.
6. Turdaliyev A. Qalamtasvir asoslari. –N.: Faxrizoda, 1999.
7. Oripov B.N. Predmetlar aro bog‘lanish. -T.: O‘qituvchi, 1985.
8. Hasanov R. Narsani o‘ziga qarab rasm chizish. -T.: O‘qituvchi, 1969.
9. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: Moliya, 2003.
10. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. -T.: Ilm-zifo, 2005.